

“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI

06. Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar

EMITENTNING NOMI								
1.	To‘liq:					“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati		
	Qisqartirilgan:					“NKMK” AJ		
	Birja tikerining nomi:*					Mavjud emas		
ALOQA MA’LUMOTLARI								
2.	Joylashgan yeri:					210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy		
	Pochta manzili:					210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy		
	Elektron pochta manzili:*					info@ngmk.uz		
	Rasmiy veb-sayti:*					www.ngmk.uz		
MUHIM FAKT TO‘G‘RISIDA AXBOROT								
Muhim faktning raqami:					06			
Muhim faktning nomi:					Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar			
Umumiy yig‘ilish turi:					Navbatdan tashqari			
Umumiy yig‘ilish o‘tkazish sanasi:					2025-yil 30-dekabr			
Umumiy yig‘ilish bayonnomasi tuzilgan sana:					2025-yil 30-dekabr			
Umumiy yig‘ilish o‘tkazilgan joy:					Toshkent shahri, Istiqlol ko‘chasi, 29-uy			
Umumiy yig‘ilish kvorumi:					100%			
3.	№	Ovoz berishga qo‘yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
			Yoqlash		Qarshi		betaraflar	
			%	soni	%	soni	%	soni
	1	Jamiyat ustav kapitalini (fondini) kamaytirish to‘g‘risida.	100	15 077 622 574	0	0	0	0
2	Jamiyat Ustavining yangi tahririni tasdiqlash.	100	15 077 622 574	0	0	0	0	
3	Jamiyatning qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalarning matnini tasdiqlash.	100	15 077 622 574	0	0	0	0	
Umumiy yig‘ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to‘liq bayoni:								
1	1.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining 2025-yil 7-noyabrda 21-son majlis bayonnomasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.							
	1.2. Jamiyatning 2025-yil 22-avgust holatiga balans (qoldiq) qiymati 4 112 972 913,48 so‘m bo‘lgan Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi hamda Shimoliy kon boshqarmasi markaziy fizik-kimyoviy laboratoriyasi bino va inshootlar mulkiy majmuasi 2025-yil 22-avgustdagi 34-sonli “Obyektni va mol-mulkni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi”ga muvofiq Agentlikka o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.							
	1.3. Jamiyat ustav kapitali (fondi)ni Jamiyat Yagona aksiyadori – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi egaligidagi oddiy aksiyalar soni hisobidan 4 112 973 donaga qisqartirish yo‘li bilan 4 112 973 000 so‘mga kamaytirilsin, shuningdek, topshirilgan mulkiy majmualar balans (qoldiq) qiymati - 4 112 972 913,48 so‘mdan Kuzatuv kengashining 2025-yil 24-iyundagi 8-son yig‘ilish bayonnomasiga muvofiq Jamiyat ustav kapitali miqdori ko‘paytirilganda yuzaga kelgan Jamiyatning yagona aksiyador oldidagi 862,61 so‘m miqdordagi qarzi kamaytirilib, hosil bo‘lgan 4 112 972 050,87 so‘mning yaxlitlanishidan kelib chiqqan 949,13 so‘m miqdordagi farq Jamiyatning keyingi aksiyalar chiqariluvda inobatga olinsin.							
2	2.1. Jamiyat Ustavining yangi tahriri 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.							
	2.2. Jamiyat Korporativ maslahatchisi S.N. Murtazayev Jamiyat Ustavining yangi tahririni o‘rnatilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlasin.							
3	3.1. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan 2025-yil 6-avgustda R0968-2-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi							

	to'g'risidagi qaroriga kiritilayotgan o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalarning matni" loyihasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. 3.2. Jamiyat Korporativ maslahatchisi S.N. Murtazayev Jamiyat Ustavining yangi tahriri o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin "Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risida"gi qaroriga o'zgartirishlar matnini vakolatli davlat organi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlasin. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash Jamiyat Boshqaruv raisi – Bosh direktori Q.S. Sanaqulov zimmasiga yuklatilsin.
	Aksiyadorlik jamiyatining ijroiya organi, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'zolari foydasiga haq va (yoki) kompensatsiyalar hisoblanmagan.
	Kuzatuv kengashi a'zolari saylanmagan.
	Ustavga kiritilayotgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalarning matni:
	6.2. Ustav fondi (kapitali) miqdori 15 073 509 601 (o'n besh milliard yetmish uch million besh yuz to'qqiz ming olti yuz bir) dona oddiy aksiyalarga bo'lingan 15 073 509 601 000 (o'n besh trillion yetmish uch milliard besh yuz to'qqiz million olti yuz bir ming) so'mni tashkil etadi.
	7.1. Jamiyat tomonidan 15 073 509 601 (o'n besh milliard yetmish uch million besh yuz to'qqiz ming olti yuz bir) dona oddiy aksiyalar joylashtirilgan.
	15.2. Boshqaruv 5 (besh) nafar a'zoldan iborat.
	15.9. Boshqaruv raisi – Bosh direktor va Boshqaruvning qolgan a'zolari bilan 3 (uch) yil muddatga shartnomalar tuzilib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi. Boshqaruv raisi – Bosh direktor bilan shartnoma Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashi raisi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan imzolanadi. Boshqaruv a'zolari bilan shartnomalar Jamiyat nomidan Boshqaruv raisi – Bosh direktor tomonidan imzolanadi.
	15.13. Boshqaruv majlisini o'tkazish uchun kворum Boshqaruv a'zolarining kamida 60% (oltmish foiz)dan kam bo'lmasligi lozim. Boshqaruv a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Boshqaruv raisi – Bosh direktor ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

“NKMK” AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktori

Q. Sanaqulov

Bosh buxgalter:

J.V. Novikova

Veb-saytda axborot joylashtirgan
vakolatli shaxsning F.I.Sh.:

S.N. Murtazayev